

**Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта-махсус  
таълим вазирлиги  
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети**

**Ўзбекистон География жамияти**

**Россия Фанлар академияси Узоқ Шарқ бўлимининг  
Тинч океан География институти**

**Россия ижтимоий географлар ассоциацияси**

**ОРОЛ МИНТАҚАСИ ВА ҚЎШНИ ХУДУДЛАРДА  
КОМПЛЕКС ГЕОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ  
МУАММО ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ**

**Халқаро илмий-амалий конференцияси  
материаллари**

**Нукус шаҳри, 15-16 май 2018 йил**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ КОМПЛЕКСНЫХ  
ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АРАЛЬСКОМ  
РЕГИОНЕ И СОПРЕДЕЛЬНЫХ ТЕРРИТОРИЯХ**

**Материалы Международной научно-практической конференции  
город Нукус, 15-16 мая 2018 года**

**International scientific-practical conference  
PROBLEMS AND PROSPECTS OF COMPLEX  
GEOGRAPHICAL RESEARCH IN THE ARAL REGION AND  
CO-REGIONAL TERRITORIES**

**Nukus, May, 15-16, 2018**

**Нукус - 2018**

География фанлари доктори, профессор  
*Абдусами Солиевич Солиев (1943-2016)*  
таваллудининг 75-йиллигига бағишланади



Посвящается 75-летию со дня рождения  
доктора географических наук, профессора  
*Абдусами Салиевича Салиева (1943-2016)*

# **Xoldorova G.M., Hazratqulova G.M. (Jizzax davlat pedagogika instituti)**

## **MIRZACHO'L IQLIMINING DAVRIY O'ZGARUVCHANLIK XUSUSIYATLARI**

**Annotasiya.** *Iqlim resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masalalar sirasiga kirib bormoqda. Shuning uchun ushbu maqolada yurtimizning alohida hududlari meteorologik rejimini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.*

Mirzacho'l hududi iqlimi, iqlimining xarakterli jihatlari, issiqlik va yorug'likning ko'pligi, qurg'oqchil va keskin kontentalligi, hududdagi tekislik hamda tog' oldi qismi murakkab reliefi shakllarining xilma-xilligi sababli ham mahalliy iqlim xususiyatlarini vujudga keltiradi. Iqlimshunos B.P. Alisovning (1952) tasnifiga ko'ra, subtropik iqlimning kontinental tipiga kiritilib, qish ancha sovuq va yoz issiq, quruqligi, atmosfera yog'inlari asosan qish-bahor fasllariga to'g'ri kelishi bilan xarakterlanadi. Yillik yalpi radiatsiya miqdori bu yerda 150-155 kkal/sm<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. Mirzacho'lning voaha va cho'l qismlarida yozda hudud bo'ylab tuproq namligi yaxshiligi va o'simliklar qalin o'sishi, radiatsiya balansining sug'orilmaydigan yerlarda kattaligi bilan farq qiladi.

Mirzacho'lning reliefi tekis ekanligiga qaramasdan havo harorati ancha murakkab. Bu esa hududning g'arb va shimoli-g'arbga ochiqligi (sovuq va nam havo massalari shu yo'nalishda harakatlanadi), shimol va g'arb tomonlari tekislik ekanligi Arktika va Sibirdan esuvchi sovuq, quruq havo massalari, Atlantika okeanidan esuvchi nam havo massalari bimalol kirib keladi. Okeanlardan juda olisda joylashganligi uchun yoz bilan qishdagi havo haroratlari keskin farq qiladi. Hududning janub va sharq tomondan tog' tizmalari bilan o'ralganligi, tekislikning shimoli-g'arbga tomon pasayib borishi, sug'oriladigan va qo'riq erlarning almashinib borishi, yirik suv arteriyalari va irrigatsiya-melioratsiya tizimlari bilan belgilanadi. O'rtacha yillik havo harorati Mirzacho'lning katta qismida 12,5<sup>0</sup> C ni tashkil etadi. Eng sovuq oyning harorati yanvarda -3, -4<sup>0</sup> C shimolda va shimoli-g'arbda, - 0,8<sup>0</sup> C Xovosda, - 1,1<sup>0</sup> C Jizzaxda kuzatiladi. Qishloq xo'jaligi uchun mutlaq minimum va maksimum haroratlarning taqsimlanishi katta ahamiyatga ega. Eng yuqori harorat iyun-iyulda +44<sup>0</sup> C, +46<sup>0</sup> C dan yuqorisi janubi-g'arbiy qismi – Qizilqum cho'llari chegarasida kuzatiladi. Xovosda eng yuqori harorat +47<sup>0</sup> C gacha kuzatiladi. Turkiston tizmasiga ko'tarilgan sari harorat pasayib boradi.

Quyoshning ufqdan balandligi iyun oyi oxirlarida 73<sup>0</sup> C ga yetadi. Jizzax shahrida sovuqsiz davr 210 – 220 kunga boradi. Yillik yalpi radiatsiya miqdori 150 kkal/sm dan ortadi. Yil davomida o'simliklarning rivojlanishiga imkon beradigan haroratlar yig'indisi 4300-4600<sup>0</sup>C bo'lganligidan, bu yerda issiq o'lkalarda o'sadigan ekinlarni yetishtirish imkoniyati mavjud.

Mirzacho'lning iqlimiga tavsif berish uchun Jizzax viloyat hududida joylashgan 5 ta meteorologiya kuzatuv stantsiyasi, 1 ta agrometeorologiya, 1 ta ko'l stantsiyasi va 1 ta agrometeorologiya kuzatuv postlarining ko'p yillik ma'lumotlaridan foydalandik. Bu meteorologiya stantsiyalarida doimiy ravishda kuzatuv ishlari olib borilmoqda.

1-jadval

**Jizzax viloyatidagi meteorologiya stantsiyalari**

<b>T/r</b>	<b>Stantsiyalarning nomi</b>	<b>Stantsiyalarning manzili</b>
1	Jizzax meteorologiya stantsiyasi	Jizzax shahri Zilol mahallasi
2	Yangiqishloq meteorologiya stantsiyasi	Forish tumani E.Komilov mahallasi
3	Lalmikor-Jizzax meteorologiya stantsiyasi	G'allaorol tumani Lalmikor qo'rg'oni
4	G'allaorol agrometeorologiya stantsiyasi	G'allaorol tumani Olimlar mahallasi
5	Baxmal meteorologiya stantsiyasi	Baxmal tumani Qirq qishloq
6	Do'stlik meteorologiya stantsiyasi	Do'stlik shahri
7	G'arbiy Arnasoy ko'l stantsiyasi	Forish tumani
8	Zomin agrometeorologiya posti	Zomin tumani Birlik mahallasi

B.A. Alisovning (1956) iqlim klassifikatsiyasi bo'yicha O'rta Osiyo subtropik iqlim mintaqasining shimoliy chegarasida joylashgan. A.N. Babushkin (1961) subtropik va mo'tadil iqlim elementlari qo'shilib turgan bu regionni kontinental subtropik iqlim deb ataydi. Jizzax viloyati ushbu iqlim mintaqasining shimoliy chegarasiga to'g'ri keladi.

N.N. Ivanovning tasnifiga ko'ra viloyatning katta qismining iqlimi kontinental va uning cho'l qismi keskin kontinental bo'lib, meteorologik elementlari sutkalik va yillik, shuningdek yildan-yilga tebranishlarning kattaligi bilan ajralib turadi. Havo haroratining yillik o'rtacha amplitudasi (eng sovuq va

eng issiq oylar o'rtacha harorati orasidagi farqi) 26-30<sup>0</sup> C ga teng. Sovuq havo massalari janubdagi tog'lardan o'ta olmay, Jizzax viloyatida to'planib qoladi. Natijada, qishda havo harorati pasayib ketadi. Shuning uchun ham qish fasli ancha sovuq bo'ladi. Yanvar oyining o'rtacha harorati shimol va shimoliy-g'arbida -3,2-4,4<sup>0</sup> C, Jizzaxda -1,1 0<sup>0</sup> C, Xovosda -0,8<sup>0</sup> C ko'rsatkichlarida qayd qilingan. Mirzacho'lda eng o'rtacha harorati shimol va shimoliy-g'arbida Jizzax shahrida esa -2<sup>0</sup> C teng. Past harorat viloyatning shimoliy qismida kuzatiladi. Havoning eng past harorati tog' oralig'i botig'i (kotlovinasi) G'allaorol uchun o'rtacha oylik harorat -3,4<sup>0</sup> C kuzatilib, tog'larda balandlik ortishiga bog'liq holda Ko'losoyda -5,4<sup>0</sup> C teng. Ko'losoy rayonida havo harorati -5<sup>0</sup> C atrofida barqarorligi kuzatiladi. Viloyatning qolgan hududlarida bunday barqarorlik kuzatilmaydi (2-jadval).

2-jadval

### O'rtacha ko'p yillik havo harorati

Meteo-stantsiya	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	yil lik
Chordara	-4,4	-0,2	6,8	14,0	20,7	25,4	28,1	25,8	19,0	11,7	3,9	-0,8	12,4
Sirdaryo	-3,2	0,0	7,3	14,7	26,8	25,6	27,0	25,8	18,8	11,5	4,7	0,4	13,1
Xovos	-0,8	1,8	8,6	16,0	22,2	27,6	29,9	28,3	22,3	14,2	7,7	2,5	15,0
Jizzax	0,3	2,0	8,4	15,7	21,2	26,5	28,1	25,7	20,4	13,6	7,6	2,8	14,3
Do'stlik	0,6	2,2	8,1	16,2	21,3	26,6	28,0	25,6	20,2	13,5	7,4	2,8	14,4
G'allaoro I	-2,4	-0,3	6,4	13,5	18,6	24,5	26,9	24,6	18,4	11,2	5,0	0,2	12,1

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarilishida tuproq harorati rejimi katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Tuproq yuzasini ortacha yillik harorati 17-18<sup>0</sup> C atrofida kuzatilgan holda bu ko'rsatkich havo haroratida 2.5-3<sup>0</sup> C yuqori. Yil davomida tuproqning o'rtacha oylik harorati oylar bo'yicha taqsimlanadi.

Shamollar harakati Mirzacho'lda o'ziga xos bo'lib, shimoliy-g'arbiy qismida shimoliy yo'nalishda esadi. Janubi-sharqida qishki janubi-sharqiy yo'nalishda esib tezligi yuqori. Mirzacho'lda yana bir muhim jihati shuki, kunduzi esadigan shamolning tezligi kechasi esadigan shamol tezligidan yuqori bo'lib, tuproq yuzasi, suv havzalari, kanallar va aeratsiya zonasida namlikning bug'lanishini tezlashtiradi. Jizzax viloyatida kuchli shamollar bo'lib turadi. Shamol tuproq tarkibidagi namning ko'plab bug'lanishiga, chang - to'zon ko'tarilishiga, qishda esa qorlarni uchirib, tuproqning muzlashiga sabab bo'ladi. Viloyatning tabiiy sharoitiga bog'liq holda esuvchi shamollarga briz tipidagi Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi bilan quruqlik o'rtasidagi hamda tog'-vodiy tipidagi shamollarga Turkiston tog' tizmasi bilan tog' oldi tekisliklari oralig'ida esuvchi shamollar misol bo'ladi. Mirzacho'lning shimoliy-g'arbida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining vujudga kelishi ham keyingi vaqtlarda hudud iqlimining tarkib topishi hamda ko'llar atrofi landshaftlari o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ko'llar yuzasidagi bug'lanish tufayli ayrim vaqtlarda bulutli kunlar vujudga kelib, yozgi yomg'irlar yog'ishi kuzatilmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligi ekinlariga zarar keltirishi aniqlangan.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining maydoni (3702 kv.km) va suv hajmining (44,1 km<sup>3</sup>) ortishi hisobiga, botiqning ko'l va quruqlik o'rtasida quyosh radiatsiyasining taqsimlanishidagi tafovutlari ortib bormoqda. Buning oqibatida kunduzi ko'ldan quruqlik tomonga, kechqurun esa, aksincha, quruqlikdan ko'l tomonga briz tipidagi shamollar esmoqda. Arnasoy ko'l stantsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, briz tipidagi shamollarning tezligi ba'zan bahor fasllarida sekundiga 10-15 metrga yetmoqda.

Mirzacho'lning janubi-sharqiy hududlari Turkiston tog' tizmasi va uning tarmoqlari joylashgan. Turkiston tog' tizmasi bilan tog' oldi tekisliklari oralig'ida bosimning o'zgarishi hisobiga ba'zi kunlari tog'-vodiy tipidagi shamollarning esishiga guvoh bo'lamiz. Tog'-vodiy tipidagi shamollar sutkaning birinchi yarmida tog' yonbag'irlarida tekislik tomon harakatlanadi, kunning ikkinchi yarmida esa, aksincha, teskari yo'nalishda harakat qiladi. Ushbu yo'nalishdagi shamollarning tezligini yuqori emasligini ko'ramiz va sekundiga 1-3 metrga yetadi. Kuchli shamollar janubi-sharqiy va sharqiy yo'nalishda esib, asosan, Mirzacho'lning janubiy hududiga xos bo'lgan "xovos" shamolidir. Xovos shamoli Farg'ona darvozasidan Mirzacho'l tomonga esib, kuz va qishda tezligi 46 m/sek.ga yetadi. Xovos shamoli tarqalish chegarasining joylashuvi uning vujudga kelish fazasiga va sinoptik jarayonlarga bog'liq. Oqimining kengligi 45 km atrofida, uzunligi 100 km dan ortadi. Mirzacho'lning 3000 km<sup>2</sup> dan ortiq maydonini qamrab oladi. Xovos shamoli tez-tez chang to'zon ko'tarib turadi, bu esa deflyatsiya jarayonining rivojlanishiga olib keladi. Uning salbiy xususiyati kuzgi shudgor qilingan dalalarning etilish

davrining mos kelmasligi olib kelib, shudgor qilingan tuproq strukturasi buzilishiga sabab bo'ladi. Shamolning shiddatli kuchi 5-7 mm kattalikdagi tuproq zarralarini uchirib ketib, Mirzacho'l hududida tuproq to'zishining yirik o'chog'i vujudga keladi.

Havo harorati  $10^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'lgan kunlar Mirzacho'lda 218 kun, Xovosda 226 kun va Jizzaxda 219 kun hisoblangan. Jizzax viloyatida kuchli shamollar bo'lib turadi. Shamol tuproq tarkibidagi namning ko'plab bug'lanishiga, chang – to'zon ko'tarilishiga, qishda esa qorlarni uchirib, tuproqning muzlashiga sabab bo'ladi. Mirzacho'lning o'zlashtirilishigacha uning tuproqlari shamolarning emiruvchi faoliyatiga qarshilik ko'rsata olgan, chunki ular chala cho'l o'simliklari bilan mustahkamlangan bo'lib, keyingi yillarda deflyatsiya xavfli tus ola boshlagan bo'lib, qishloq xo'jaligiga sezilarli zara keltirmoqda. Bunday holatning sabablaridan biri cho'l yaylovlarida chorva mollarining soni ortib borishi tufayli bir joyda muttasil boqilishi hisoblanadi. Yaylovlarning maydoni hozirgi kunda ikki barobar qisqarib ketsada, chorva soni kamaygani yo'q va bu esa o'z navbatida hududda cho'llashishning tezlashuviga olib keladi.

Mirzacho'lda yerlarni noto'g'ri sug'orilish ham deflyatsiyaning rivojlanishi sabablaridan biri bo'lib, tuproq sho'rlanishiga olib keladi. Bug'lanishning sug'orish mavsumida yuqori bo'lishi tufayli er osti suvlarining er yuzasiga yaqin bo'lgan joylarda tuproq tarkibidagi tuz er yuzasiga chiqib qolib, tuproq to'zishi o'choqlarini vujudga keltiradi. Mirzacho'lning g'arbiy qismiga Xovos shamoli o'zining transportlik qobiliyatini sarflab, olib kelingan mahsulotlarni akkumulyatsiya qila boshlab, to'lqinsimon tepalik relyef shakllarini vujudga keltiradi. Mirzacho'l hududida ikki tomonlama yo'nalishda esuvchi shamollar uning shimoli-g'arbiy chekka qismida diametri 1-2 km bo'lgan ko'plab uchirib ketilgan kotlovinalarni vujudga keltiradi. Mutaxassislarining olib borgan kuzatuvlariga ko'ra, Xovos shamoli sutka davomida 2-3 sm qalinlikda chang bilan qoplaydi. (L.Alibekov, 1994). Deflyatsiya tufayli vujudga keladigan zarar nafaqat tuproqning kambag'allashuvi bilan bog'liq. U kanal va kollektorlarning loyqa bosishiga imkon yaratadi. Ularni tozalash uchun esa katta sarf-harajat talab qilinadi. Bundan tashqari, shamol dalalardan qorni uchirib ketib, natijada yer zarur bo'lgan namlikni etarlicha ola olmaydi va sug'orish uchun qo'shimcha suv talab qilinadi.

Iqlimning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun qulayligi darajasini baholash, ushbu baholashning tugallanish bosqichi ishonchliligi hududning ilmiy jihatdan umumiy tabiiy geografik rayonlashtirishning bir qismi sifatida qaraladi. Havoning yuqori harorati, atmosfera yog'inlarining kamligi, absolyut va nisbiy havo namligining pastligi, yuqori miqdordagi bug'lanishni keltirib chiqaradi, buning natijasida tuproqda tuz to'planishi va qayta sho'rlanish jarayonlarining jadallashuviga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдуллаев А.К. Қишлоқ хўжалигига агрометеорологик хизмат /Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали, №5, 1999, 13-14 б.
2. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –264 б.
3. Имомжонов Ҳ.А., Камолов Б.А. Ўзбекистонда об-ҳавога таъсир этиш. –Тошкент, ЎОИТГМИ. 2001. –119 б.
4. Леухина Г.Н., Ляпина О.А., Веремева Т.Л. Климат Узбекистана. –Ташкент, САНИГМИ, 1996. –76 с.

#### **ОСОБЕННОСТИ СЕЗОННЫХ ИЗМЕНЕНИЙ КЛИМАТА В МИРЗАЧУЛЬСКОМ РАЙОНЕ**

**Аннотация.** Рациональное использование природных ресурсов является одной из приоритетных задач. Поэтому в данной статье большое внимание уделено анализу метеорологического режима отдельных уголков нашего края.

#### **THE PERIODIC MUTABILITY FEATURES OF THE CLIMATE OF MIRZACHUL**

**Abstract.** The effective using of the climate resources is becoming one of the today's main issue. So, the analyzing of the particular area of our country gain in great importance in this article.

#### **Ҳакимов Қ.М., Ниёзов Н.Х. (Жиззах давлат педагогика институти) ОРОНИМЛАР: НОМЛАШ ҚОНУНИЯТЛАРИ ВА ШАКЛЛАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ**

**Аннотация.** Мақолада турли орографик объектларнинг номлаш қонуниятлари ва уларни бошқа тур жой номларидан фарқловчи хусусиятлари ҳамда шаклланиш тамойиллари аниқ мисоллар ёрдамида тадқиқ қилинган.

Топонимикада барча орографик объектларнинг номлари оронимлар (юнонча, орос - «тоғ») дейилади. Бу тур номлар рельеф шакли ва элементларининг ўзига хос хусусиятларини ифода этади ва улар жой номларининг бошқа турларига нисбатан кам ўрганилган. Тадқиқотлар шуни

14. Kalabaev S.B., Sultashova O.G. - Qoraqalpogʻstan aymaqlarining agroklimatliq resurslarin uyreniw ham agroklimatliq rayonlastiriv meseleleri 76
15. Эгамов Б.Ю. - Ўзбекистон жадид мактабларида география таълими 78

СЕКЦИЯ-2. Опыт и перспективы прикладных физико-географических и геоэкологических исследований

1. Алибеков Л.А. - Оценка развития процессов опустынивания в бассейне Аральского моря в условиях глобальных изменений климата 81
2. Попов В.А. - О современном ландшафтогенезе на обсохшем дне Аральского моря 87
3. Низамиев А.Г., Умаралиев Р.А. - Опасные природные явления Кыргызстана: региональный анализ проявлений 93
4. Табунщик В.А. - Показатели типологического ландшафтного разнообразия Джанкойского района (включая город Джанкой) Республики Крым 97
5. Аббасов С.Б., Сабирова Н.Т. - Айдар-Арнасой хавзасининг ноёб ландшафтларини муҳофаза қилиш ва улардан экотуристик мақсадларда фойдаланиш 99
6. Chipizubova M.N. - Distribution of *Centaurea jacea* L. (Asteraceae) in Reineke Island (Japan Sea, Vladivostok, Primorsky Krai, Russian Federation) 102
7. Миракмалов М.Т., Авезов М.М. - Қорақалпоғистон Республикаси топонимларининг табиий географик хусусиятлари 104
8. Попович И.Ю., Ревуцкая И.Л. - Влияние автомобильного транспорта на качество атмосферного воздуха города Биробиджан 106
9. Рахматуллаев А., Мамажанов Р.И., Джумабоев Т.Ж. - Шамол ресурслари Ўзбекистоннинг муҳим энергия манбаидир 109
10. Тошов Х.Р., Кодиров А.А., Орипов М. - Бухоро вилояти иқлимининг яйлов чорвачилиги ривожланишига таъсири 113
11. Маматова Г.Ч., Мамбетуллаева С.М. - К вопросу изучения биоразнообразия в Нижне-Амударьинском государственном биосферном резервате 115
12. Селедец В.П. - Формирование миграционного потенциала адвентивной флоры Дальнего Востока России в Аральском регионе и на сопредельных территориях 117
13. Абдувохидов С., Хасанов Ж. - Экологик туризмда эталон маршрутларни қўллаш 121
14. Xoldorova G.M., Hazratqulova G.M. - Mirzacho'l iqlimining davriy o'zgaruvchanlik xususiyatlari 125
15. Хакимов К.М., Ниёзов Н.Х. - Оронимлар: номлаш қонуниятлари ва шаклланиш тамойиллари 127
16. Сотиболдиева Г., Юлдашев Ф. - Фарғонанинг қолмақажланган тупроқли ландшафтларига литопедегеокимёвий тавсиф 130
17. Балтабаев О.О. - Ойконимиялық терминлер ҳам олардың топоним пайда етиўдеги орны (Тахтақөпір районы мысалында) 133
18. Хурсанов Д. - Ландшафтларнинг структурали таҳлили ва унинг амалий аҳамияти 135
19. Тошбоев З.М., Кобулова Р., Хазратқуллова Г. - Қуйи Амударё округида муҳофаза этиладиган ҳудудлар 138
20. Журакулов Х., Журакулова Д., Жураева Ф. - Омонқўтон - табиатнинг ноёб гўшасидир 140
21. Abralov O.S., Yaxshiboyeva D.T. - Qizilqum mintaqasining ekologik holati 142
22. Shamsidinova G.D. - O'zbekistonning barqaror rivojlanishida atrof-muhit muhofazasi va iqlim o'zgarishlari masalalari talqini 144
23. Боймирзаев К.М., Мирзахмедов И.К. - Техноген ландшафтлардан фойдаланиш ва уларни рекультивация қилиш масалалари (Фарғона водийси мисолида) 146
24. Tursinov M.J., Artikova U., Utarbaeva K.A., Uzaqbaeva R., Dehqonboeva M. - Yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish 148
25. Турдалиев А., Аскарров К., Мусаев И. - Чўл минтақаси ландшафтларининг агромелиоратив ҳолати 149
26. Ишниязова Ф.А., Петров Ю.В. - Атмосферная засуха как один из факторов устойчивого развития экономики Узбекистана 151
27. Бобоева Г.С., Абдиганиева Г. - Атроф-муҳитнинг ифлосланиши оқибатида инсон саломатлигининг заифлашуви 154
28. Худайбергенов Я.Г. - Геоэкологические предпосылки сравнительных ландшафтоведческих исследований на примере Южного Приаралья и Северного Прикаспия 155
29. Реймов А.Р., Уразбаев Т. - За полное использование агро и гидропрогнозов в мелиоративном деле 157
30. Сейтниязов К.М., Коспанов Н. - Географиялық топонимлер ҳам олардың классификациясы 158
31. Urinbaeva F.B. - Qoraqalpog'iston gidronimlari 159